



VOKAL XONANDALIGI O'QITISH USHLUBIYOTI

Ibrohimov Azizbek Ismonjon o'g'li


<https://doi.org/10.5281/zenodo.7787415>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Operaning yana bir janri vokal, bu janrda vokal ijrochiligida kuylashda nimalarga e'tibor berish, umuman xonanda o'zini qanday tutishi haqida yozma manbalar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: opera, vokal, ovoz, texnika, nafas, grud, xonanda.


Operaning eng sara janrlaridan biri "Vokal" janridir. Albatta birinchi o'rinda aytish joizki umuman olganda xonanda uchun ovoz, nafas juda katta o'rin egallaydi. O'zbekistonda har bir sohada bo'lgani kabi san'atga berilayotgan e'tibor soha vakillarini quvontirmoqda. Jahon andozalariga mos tushadigan yangi yo'nalishdagi musiqa sezilarli darajada yuksaldi, ulg'aydi va baquvvatlandi. Ayni paytda ustozlarning yangi yosh avlod shakllanib borayotganligi nazarda tutsak, O'zbekistonda musiqa san'ati yangi sifat pog'onasiga ko'tarilayotganligi ta'kidlashimiz mumkin. O'zbekiston milliy simfonik, kamer va xalq cholg'ulari orkestr jamolari birlashmasi huzuridagi O'zteleradio xor jamoasi, Alisher Navoiy nomidagi opera va balet teatri, hamda Muqumiy nomidagi musiqali komediya teatri xor jamoalari, O'zDK xuzuridagi MTS xori, talabalar xor jamoalari, Respublikamizdagi barcha o'rta maxsus musiqiy ta'lim muassasalari va BMSMlari xor jamoalari va vokal xonandalari o'z ijodiy faoliyatini yanada takomillashtirib, rivojlantirib, kelmoqdalar. Xonandaning ovozini tarbiyalash uzoq muddatli va ma'lum vaqt talab qiladigan ish hisoblanadi. Xonanda texnik ko'nikmalar badiiylik orqasidan shakllana boradi. Texnik ko'nikmalarga yetarlicha ega bo'lmagan xonanda ijodiy mo'ljalga yetib bora olmaydi. Xonanda o'zining asbobi bo'lmish ovozida ijro etayotgan asarning kayfiyatini ochib berishi mumkin.

Ovozning intonatsion bo'yog'ining kuchli hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. U ijro qilinayotgan asarning musiqiy obrazlarni keng namoyon etishda yordam beradi. Bu juda murakkab jarayon bo'lib, xonandadan yillar davomida vokal ko'nikmalarini mukammal egallashda, doimo izlanish bo'lishini talab etadi. Musiqa va kuylash ko'nikmalarini o'rganish ichki tuyg'u, ijodiy yuksalish, iroda, talaning intilishi, yaxshi kayfiyat, ishonch va maqsad sari to'g'ri yo'nalish asosiy jihatlaridir. Ta'lim jarayonida har xil vaziyatlar sodir bo'lishi mumkin, masalan tomoshabinlar oldiga chiqishdan oldingi xayajon. Ular bir qancha chiqishlardan so'ng yo'qolib boradi. "Vokal" eshitish qobiliyatini rivojlantirishda pedagog talabaning intilishidan, uning fizik tomondan imkoniyatlaridan va xonanda ovozining yuqori sifatlarini namoyon etishda professionallarcha yondashishi zarur. Bunda rezonatorlarni to'g'ri ishlatish, artikulyatsiya organlari orqali





vibratsiya kombinatsiyalaridan to'g'ri foydalanish, ovoz tembrini yaxshilashda yordam beradi. Bosqichma bosqich vokal ko'nikmalariga ega bo'lish, asosiysi musiqiy fikrlash xoxnandaning vokal ta'lim sohasidagi muvaffaqiyat garovidir. Bu vokal maktablarining asosidir, musiqiy-obraz negizida vokal texnik ko'nikmalar, ideallik, buyuk ko'nikmalarida, ideallik, buyuk maqsadlari sari intilishdek tuyg'ular yotadi. Vokal texnik ko'nikmalarida birinchi qilinadigan ish quyi qovurg'a- diafragma nafasni shakllantirishdan iborat. Xonanda ovoz mashqlarida, vokalizlar va musiqiy asarlarni kuylayotgan paytda nafas olishi va chiqarishni hisobga olgan holda nafas tejash usullarini o'rganishi zarur. Ko'pincha quyidagi misol ko'p yordam beradi: "Gul iforini ko'krakka sig'guncha nafas olish" usuli. Bu usul vokal pedagogikasining an'anaviy usullaridan biri sanaladi. Hattoki, oddiy ovoz mashqlari ham Yakkaxonandalik sinfi ustida amalga oshiriladi. Xonandaning to'g'ri nafas olishi, dars davomida asarning badiiy jihatlarini musiqiy, frazalarning ifodaviyligi ustida ishlashga yaqindan yordam beradi. Nafas olishning fiziolog rivojlanishini kuylashdan tashqari holda shakllantirish tavsiya etilmaydi. Nafassiz kuylash ham mumkin emas. Nafas bilan kuylash tembrning yaxshilanishiga, ovoz kuchining ko'payishiga va ovoz sifatining o'z bo'yog'ini yo'qotib qo'yadi va quruq bechora va soxta ovozga aylanib boradi. Pedagog kuylash jarayonida talabaning nafas olishidan tashqari uning chiqarishini ham kuzatib borishi talab qilinadi. Sababi talaba ovozi ayollarga xos hislatlardir. Faqatgina talaba va pedagogning ish jarayonida to'g'ri yo'ldan borishi ularning mashqlarning qiyinchiligi va yangidan yangi ijrochilik misollarini yechishda muhim kasb etadi. Bunga esa vaqt va sabr kerak bo'ladi. Vokal texnik ko'nikmalarida xonanda nafasining qo'yilishi va eng ma'suliyat jihatlardir. Shuning uchun ovoz mashqlaridan nafas ustida ko'proq ishlash tempning o'zgarishi musiqiy frazalarni eng sekin tempda kuylash juda katta yordam beradi. Albatta ta'lim jarayonida talabaning salomatligi, nerv, sistemasining turg'inligi mehnat va olishning me'yorlari muhim ro'l oynaydi. Boshqa so'z bilan aytganda talabaning muvofaqqiyatlari ta'lim olishida ham muhim, ahamiyat kasb etadi. Yakkaxonlar bilan ovoz ustida ishlashda ularning o'ziga xos alohida jihatlari bor. Sopranolar: yorug' tembr bo'yog'iga ega bo'lib, ta'lim jarayonida ovozlarning yanayam yengil bo'lishi texnik tomondan yarqirashi nyuansva ovoz filirofasini maromiga yetkazish yaxshilanib boradi. Bunday yutuqlarga muntazam ravishda ovoz aparating bir maqsadga qaratilgan mashqlar muhim ro'l o'ynaydi. Shu bilan birga ovoz diapazonini kengaytirishda shoshma shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Albatta ta'lim jarayonida vokal asarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda pedagog tomonidan yosh





xonanda uchun to'g'ri asar tanlashi juda muhimdir. Tavsiya etilgan repertuarlar o'zida ovoz mashqlarining qaytarilishi va ularning mustahkamlanishini mujassam etmog'i zarur. Birinchi bosqichda uncha qiyin bo'lmagan klassik ariyalar, halq qo'shiqlari, romanslardan namunalar ijro etish mumkin. Vokal texnik ko'nikmalarini egallagan sari talaba repertuari ham murakkablashib borishi zarur. Ovoz mashqlarini asarga mos keladigan emotsional holat bilan kuylanishi zarur. Emotsional va ifodaviylik talabaning musiqa shaklini tushinishga yordam beradi. Bu esa xonandaning qalbdan jo'shib kuylashi va musiqiy uslublarni tushungan holda tinglovchiga yetkazib berishda kerak bo'ladi. Aynan shuning uchun ovoz mashqlarining metodik maqsadlarida uncha katta bo'lmagan melodik fraza beriladi. Bu frazaning mashq qilish orqali xonanda asarning tub ma'nosiga yetib borishga harakat qiladi. Bu esa texnik va badiiy jihatlarni bir vaqtning o'zida shakllantirishda katta yordam beradi. Nafas olish organlari: a) traxeya -15 sm yaqin trubkasimon, Ko'krak qismgacha yetib borganda traxeya o'ng va chap bronxlarga bo'linadi, qaysiki o'z navbatida yana ko'p kanallarga bo'linib bronxial daraxt hosil qiladi. Traxeya ochiq yarim doira tog'aylardan tashkil topgan:b) bronxlar – ular orqali xavo o'pkaga yetib boradi, bu yerda o'pka ko'piklari gaz almashuvini bajaradi. Inson yugurib ketayotganda o'pka nafas olishni yengillatish va ventilyasiyasini kuchaytirish uchun maksimal va ko'tarilishi kengayadi. Uxlayotganda ular torayadi, ba'zi qismlari esa nafas olishdan to'xtaydi: v) O'pka- elastik, xavodek yengil, gupkani eslatadi. Uning asosiy og'irligini undagi o'pka ko'piklari tashkil etadi. O'pka yomon tovush o'tkazich xisoblanadi. Nafas olish, ya'ni xavoning o'pkaga surilishi, ko'krak qafasining kengayishi natijasidir, xamda diafragmaning tushurilishidir: g) Diafragma – ko'krak qorin mushaklarining murakkab formasiki, kupolni eslatadi: d) Nafas olish va chiqarish paylari qisqaradi, nafas chiqarish paylari aksincha bo'shashadi.

Nafas olish sistemasi nerv sistemasi tomonidan 2 xil boshqariladi: o'z – o'zidan (erkin) va erkin emas. O'quvchi bilan ishlayotganda nafas olishining quyidagi prinsiplariga rioya qilish talab etiladi: sokin, kerakli xajmida, chuqur nafas olib, tovush chiqarishdan oldin uni ushlab turish, nafasni sekin chiqarish va taqsimlashni o'rgatish.

Inson xayotida nafs olishning aralash turidan foydalanadi unda, ko'krak kafasi, diafragma, paylar va boshqalar. Kuylashda nafas olish quyidagilarga bo'linadi: 1. Qorindan ko'krak kafasi qimirlamaydi, nafas olish diafragmaning qo'yib yuborilishi bilan bajariladi. Qorin bu vaqtda oldinga chiqadi. 2. Ko'krak





qorin qovurg'aning pastki qisma diafragmalik ko'krak kafasi va diafragma aktiv ish xolatida. Qorin bu ozgina oldinga chiqadi.

3. Ko'krak osti (qovurg'aning diafragmalik) nafas olish asosan ko'krak kafasining pastki qismini kengayishi va ko'tarilishi xisobiga bajariladi. Diafragma ishga kirishadi. Ko'krak osti nafasi qovurg'a osti – diafragmalik nafasining variant xisoblanadi.

4. Ko'krak (qovurg'a) ko'krak kafasining tepa qismi ko'tarilgan, diafragma passiv xolatda ko'krak qafasi orqasidan xarakatlanadi. Qorin ichga tortiladi.

Xonandalik san'ati tarixi, zamonaviy ijrochilik va pedagogik amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aytib o'tilgan nafas turlarining xar birini bilish professional darajada kuylash uchun yetarli. Xonanda tomonidan nafas olish turlaridan u yoki bunisini tanlash kuylashdagi qulaylik va tovushning sifatiga bog'liq. O'qituvchi o'quvchining nafasdan qanday foydalanayotganini diqqat bilan kuzatish kerak, lekin, agarki tovush to'g'ri bo'lsa albatta, o'z fikrini unga singdirishdan o'zini tutishi kerak. Eng asosiysi qanday nafas olish emas, uni qanday sarflashdir. Ovozni to'g'ri xosil qilish uchun quyidagilarni bilish lozim;

a) Xaddan tashqari ko'p nafs olmaslik. b) Keraklixa nafas olmasdan kuylashni boshlamaslik. V) Tovush xujumi boshlanganda va kuylash davomida, nafas xisini saqlab qolish. G) Jumla davomida nafasni to'g'ri taqsimlash, nafasning jumla oxirigacha to'liq yetishi, jumla tugagach qolgan xavoni chiqarib yuborish kerak. Bundan ko'rinib turubdiki vokal xonandaligi talabadan juda katta mukammallik, professionallik va mohirlikni talab qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barno Shaxnazarova "Xonandalik uslibiyoti asoslari" o'quv qollanma Toshkent 2017.
2. T. Mamikonyan "Yakka xonandalik" Toshkent – 2017.
3. Internet ma'lumotlari ("Vikipediya" ensiklopediyalar va boshqa internet saytlari).

